



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 3 aprel

№ 1889

O'zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 69-72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Haydarov O'tkur Muhammadiyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Muxamedov Sanjar Xaydaraliyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Piskent tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Imomov Axrorjon Anvarovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyati Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Omonov Muzaffar Normurodovich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Pastdarg'om tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Guliston shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov